

XO‘JA AHROR VALIY — DIN VA SIYOSAT ARBOBI

Raximova Dilfuza Qodirjon qizi
samarqand davlat pedagogika instituti
draximova919@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada XV asrning mashhur mutafakkiri va tasavvuf namoyandasi Xo‘ja Ahrorning hayoti, faoliyati hamda ma’naviy merosi yoritiladi. Unda Xo‘ja Ahrorning Naqshbandiya tariqatidagi o‘rni, xalq orasidagi obro‘-e’tibori, ilm-fan va bunyodkorlikka qo‘shgan hissasi haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, uning jamiyat hayotidagi ta’siri va tarixiy ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Xo‘ja Ahror, Naqshbandiya tariqati, tasavvuf, Movarounnahr, Temuriylar davri, ma’naviy meros, mutafakkir, bunyodkorlik, islom dini, tarixiy shaxs.

Annotation: This article covers the life, activities, and spiritual heritage of Khoja Ahror, a famous 15th-century thinker and representative of Sufism. It discusses Khoja Ahror's role in the Naqshbandiya order, his prestige among the people, and his contribution to science and construction. Additionally, his influence on society and his historical significance are analyzed.

Keywords: Khoja Ahror, Naqshbandiya order, Sufism, Movarounnahr, Timurid period, spiritual heritage, thinker, construction, Islam, historical figure.

Аннотация: В данной статье освещаются жизнь, деятельность и духовное наследие Ходжи Ахрора, известного мыслителя и представителя суфизма XV века. В ней рассматриваются роль Ходжи Ахрора в тарикате Накшбандия, его авторитет среди народа, а также его вклад в науку и созидательную деятельность. Кроме того, анализируются его влияние на жизнь общества и историческое значение.

Ключевые слова: Ходжа Ахрор, тарикат Накшбандия, суфизм, Мовароуннахр, эпоха Тимуридов, духовное наследие, мыслитель, созидательная деятельность, ислам, историческая личность.

Xo‘ja Ahror Valiy majmuasi Samarqand shahrining janubiy chekkasida joylashgan. Bu yerda madrasa va XV asrning yirik din va davlat arbobi, naqshbandiya sofiylik tariqati yo‘lboshchisi Xo‘ja Ahror Valiyning qabri ham mavjud bo‘lib, majmua shu ulug‘ zotning nomi bilan bog‘liq.

Aslida Xo‘ja Ahror kim? Nima sababdan Samarqandda dafn etilgan? Xo‘ja Ahror shaxsiga to‘xtaladigan bo‘lsak, bu zotning asli ota-bobolari bag‘dodlik bo‘lib, Shoshning mashhur ulamolaridan bo‘lmish Abubakr Muhammad Kaffol Shoshiyning shuhratini eshitib Bag‘doddan Toshkentga kelib, undan saboq oladi va shu yerda yashab qoladi. Natijada Xo‘ja Ahror 1404-yilda Toshkent viloyatining hozirgi Bo‘stonliq tumanining Bog‘iston qishlog‘ida tavallud topgan va bolaligi shu yerda o‘tgan. Ona tomonidan bu ulug‘ zot Shayx Hovand Tohurning nabirasi bo‘lgan. 1 Abu Tohirxo‘janing „Samaruya“ asariga ko‘ra, bu zotning laqabi

„Nosiriddin“ bo‘lib, nasabi Umar Xattobga erishadi. Bu zotning keyingi hayot yo‘lining ma’lum bir qismi Samarqandda kechadi. Xo‘ja Ahror Valiyning Samarqandga kelishi bilan bog‘liq bir qancha taxminlar bor. „Samaruya“ asarida:

„Bu kishi asli Toshkentlik bo‘lib, sulton Abu Saidning iltimosiga ko‘ra Samarqandga ko‘chib kelib, xo‘ja kafshir maxallasida tura boshlaydi.“ degan ma’lumot keltirilsa. 2Yana boshqa bir manbada shunday ma’lumot keltiriladi: „Xo‘ja Ubaydulloxning bolalik va yoshlik davri Toshkentda o‘tgan. 1427-yilda 23-24 yoshligida uni tog‘asi Xo‘ja Ibroxim Samarqandga

olib kelgach, Xo'ja Mavloni Qutbiddin Sadr madrasasida o'qishni boshlaydi. Lekin sog'ligi yomonlashgani tufayli o'qishni madrasada emas, mustaqil tarzda davom ettiradi. "Xo'ja Ahror Valiyning Samarqandga kelishi haqida shu kabi taxminlar keltirilib o'tiladi. Samarqandda ham bu ulug' zot ilm-fan bilan mashg'ul bo'ladi. 1428-yil Hirotga ketadi. Bu yerda shayx Baxouddin Umardan naqshbandiya tariqati bo'yicha saboq oladi. 1432-1433-yillarda Chag'oniyon viloyatining Xulugutu mavzesida yashovchi Xo'ja Bahouddin Naqshbandiyni shogirdi bo'lmish mavloni Yaqub Charxiy qoshiga keladi. Undan naqshbandiya tariqati asoslarini o'rganadi hamda uning „Risolai unsiya“ asarini mutola qiladi. Yaqub Charxiy siymosida ma'naviy piri ko'rib, uni murshid sifatida tan oladi.³ Xo'sh, Xo'ja Ahror kim? Bu zotning nomlarining tildan tushmay kelishiga sabab nimada? Nima uchun bu kishini Xo'ja

A.V. deydilar? Tarixiy manbalarda Xo'ja Ahror haqida g'oyat muhim ma'lumotlar bor. Jumladan, Faxriddin Ali as-Safiyning „Rashahot ayn al-hayot“ (Hayot buloqlaridan tomchilar) nomli asarida yozilishicha, Xo'ja Ubaydulloh–Xo'ja Ahror 1404-yil mart oyida (806-yil ramazon) Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumaniga qarashli Bog'iston qishlog'ida tavallud topgan.

Bu zotning shajarasida ota tomonidan choriyorlarning birinchisi Abu Bakr Siddiqqa (632-634), ona tomondan choriyorlarning ikkinchisi Umar ibn al-Xattobga (634-644) borib tutashadi deyilgan. Mavloni Muhammad Qozining „Silsilat ul-orifin“ nomli asarida Xo'ja Ahrorning shajarasi ancha mukammal berilgan. Chunonchi, shajara tarixida qayd qilinishicha, Xo'ja Ubaydulloh Ahrorning otasi Xo'ja Mahmud, Xo'ja Mahmud Xo'ja Shihobiddinning o'g'li bo'lib, Xo'ja Shihobiddin uch to'rt avlod bilan Xo'ja Nomiya tutashadi. Rivoyat qilinishicha, Xo'ja Muhammad Nomi asl bag'dodlik bo'lib, toshkentlik alloma Hazrat Shayx Abubakr Muhammad ibn Ali ibn Ismoil Qaffol Shoshiyning muridi bo'lgan, Hazratning mutolaasi (suhbati) tufayli Toshkentga kelib, bu yerda turg'un bo'lib qolgan.

Xo'ja Ahrorning onalari Xo'ja Dovudning qizi ekan, Xo'ja Dovud esa Hazrat Shayx

Hovand Tourning o'g'illaridir. Shayx Hovand Tohur esa Shayx Umar Bog'istoniyni o'g'illaridir. Xo'ja Ahror Valiy musulmon olamining ulug' mutasavvuf donishmandlari orasida alohida mavqega ega bo'lib keladi. Xo'ja Ahrorning buyukligi shundaki, uning tabarruk siymosida ilohiy fidoiylik, adolatpeshalik, insofu taffiq, g'aribparvarlik, kamtarlik va davlatmandlik mujassam edi.

3 . Abu Tohirxo'janing „Samariya“ asari Kamalak – 1991.O'z davrining ulug' mutafakkirlari Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiylar hamda zabardast shoir va shoh Zahiriddin.Muhammad Boburlar Xo'ja Ahrorni o'zlarining ma'naviy ustozlari sifatida ulug'laydilar, unga atab asarlar bitganlar, ayni vaqtda uning asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilganlar. Masalan, Abdurahmon Jomiy o'zlarining „Tuhfat ul-Ahror“ dostonlarida bu haqida ushbu to'rtlikni bitadi:

Kard ba jaxon navbati shohansohiy, Karkasi faqri Ubaydulloliy.

Har zamini ko'x na zarnu na bun ast, Dar nazarash chun rui yak noxun ast. On ki zi xurriyat faqr ogoh ast, Xo'ja Ahror – Ubaydullah ast.

Mazmuni:

Jahonga shahanshohlik navbati yetdi, Ubaydulloh faqri hashamatining.

Yer yuzi avvalidan oxirgi nuqtasigacha, Uning oldida parrakday ko'rinar, bas.

Faqrning hurligidan ogoh zot bu –

Xo'ja Ahror Ubaydulloh bu.4

Shu bilan birga A. Navoiy o'zining mashhur „Nasoyim ul-muhabbat“ („Muhabbat nafasi“) asarida Xo'ja Ahror Valiy haqida ma'lumot berar ekan, u kishi tilidan forsiy tildagi ruboiyni keltiradi. Bundan tashqari Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan Xo'ja Ubaydullohning „Risolai volidiyya“ asari forsiy tildan o'zbek tiliga „Volidiyya“ (Otaga bag'ishlov) nomi ostida tarjima qilinadi. Bu tarjima 1991-yilda Toshkentda nashr etilgan. Risola 2004-yilda sharqshunoslar Mahmud Hasaniy va Dilora Rajabova tomonidan forsiydan qayta tarjima

qilingan va nashr etilgan shu shaxs tufayli naqshbandiya tariqati vakillarining davlatdorlarga bo'lgan munosabati tubdan o'zgarib ketdi. Naqshbandiyaning hukmdorlarga nisbatan siyosatining o'zgarishi Xo'ja Ahror Valiy faoliyati bilan bog'liq. Manbalarda bu o'zgarish mohiyati „uzlatdan muomalaga, uzlatdan muloqotga o'tishdan iborat edi“, deb tushuntiriladi. Ya'ni Xo'ja Ahror Valiy davridan boshlab tariqat manfaatlarini va keng ma'noda xalq manfaatlarini ko'zlagan holda tariqatning hukmdorlarga bo'lgan munosabatidan, tariqat bilan davlat o'rtasida hukm surib kelgan qarama-qarshilik va muvazozlikdan vos kechib, ular bilan munosabat o'rnatish edi. Naqshbandiya o'zining 3 asrlik tarixida ilk bor davlat va hukmdorlarga yuz tutib, ular bilan munosabat o'rnatdi, hamkorlik qilishga o'tdi. Naqshbandiyaga doir manbalarda Xo'ja Ahror Valiy tufayli tariqat va davlat o'rtasida yuzaga kelgan munosabat keng ma'noda „ixlot“ (aralashish) tushunchasi bilan ifodalangan. Xo'ja Ahror Valiyning davlatdorlar bilan o'rnatgan munosabati naqshbandiyaning davlatga munosabat masalasiga yangicha yondashuv, unga nisbatan yangi mavqeyi egallashiga olib keldi. Boshqacha qilib aytganda, Xo'ja Ahror Valiy tomonidan ishlab chiqilgan va amalga oshirilgan naqshbandiya faoliyatidagi bu burilish tariqat uchun strategik ahamiyatga ega edi.⁵Bu davrda uning shuhrati faqat Movarounnahrda emas, balki Xorazm, Dashti Qipchoq, Xuroson va Hindistongacha bo'lgan keng jo'g'rofiy mintaqada tarqalgan edi. Zamonasidagi temuriy hukmdorlar Sulton Abu Said mirzo, uning o'g'li Sulton Ahmad mirzolar qoshida Xo'ja Ahrorning obro'-e'tibori shunchalik baland ediki, ular murshidlarining maslahatlaridan bahramand bo'lmay turib, biror-bir masalani hal qilishga urunmas edilar. Ulargina emas, balki Andijon hokimi Umarshayx mirzo Xo'ja Ahrorni mo'tabar sanar edi. Xo'ja Ahror faqat hukmdorlar nazdida e'tiborga sazovor bo'lib qolmay, balki o'z asrining mashhur din va adiblari, jumladan Xo'ja Fazlulloh Abulaysiy, Sa'diddin Qoshg'ariy, Said Qosim Anvor, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqalar ham uni „ka'bai maqsud“ (A. Jomiy iborasi), „murshidiofoq“ (Alisher Navoiy iborasi) deb e'tirof etganlar, unga bag'ishlab dostonlar va asarlar bitganlar, uning nomini hurmatla eslaganlar.⁶

Xo'ja Ahror Valiy ilm bilan shug'ullanibgina qolmay, dehqonchilik ham qiladi va shu sababli mualliflar „qishloqi shayx“ deb atashadi. Mirzo Ulug'bekning kuyovi mirzo Abdullo (1450-51) hukmronligi davrida Samarqandga u bilan uchrashish maqsadida kelgan Xo'ja Ubaydulloh niyatiga yetolmaydi va Shoshga qaytadi. Faqat Sulton Abu Said mirzo hokimligi boshlangach, uning iltimosiga ko'ra Samarqandga ko'chib keladi. Bu vaqtda u kishining obro' va martabasi tez oshadi. Bu hol 1454-yilda sotib olingan hovli-joyida yaqqol ko'zga tashlanadi. Chunki unda Xo'ja Ubaydulloh oliy maqom, ilohiy sirlarning orifi va maxzani, davlat va din sharafi kabi unvonlar sohibi hamda fuqaro va akobirlar mustahkam panohi sifatida tilga olinadi. Zahiriddin Muhammad Boburning „Boburnoma“ asarida „ko'p fuqarolar u kishining panohiga kirib, jabr-zulmdan ozod bo'lganlar“, deb yozilgan. Xo'ja Ubaydulloh o'z yerlaridan keladigan daromadni esa xalq boshiga solingan ortiqcha soliqlarni to'lashga, madrasa, masjid, xonaqoh va boshqa qurilishlarga sarf qilardi.

Xo'ja Ahrorning sifatlaridan yana biri shuki, u voqea va hodisalarni tahlil qilish, xulosa chiqarib, ularning natijalarini bayon etishda „tush ko'rish“ usulidan foydalanar ekan. Muhammad Qozi quyidagicha yozadi: „Ul hazratning odatlari shunday ediki, o'zlarining kashfiyot va karomatlarini tushda ko'rdim, deb ta'bir qilardilar“. Shu tufayli unga Xo'ja Ahror Valiy valiylik nisbati beriladi.⁷

„Samariya“ kitobida yozilishicha, Xo'ja Ahror Valiy „bilim egalarini sevgan, majlisi

hamisha olim kishilar bilan to'la edi. Shu sababdan ilm ahllari uchun u yerda bir oliy madrasa qoldirdi“. Bu shayx tomonidan qurilgan, Samarqanddagi Madrasai Safed nomi bilan mashhur bo'lgan madrasa edi.⁸ Shuningdek, uning Toshkent va Kobul shaharlarida ham madrasa qurdirgani haqida ma'lumot bor. Xo'ja Ahror Alisher Navoiy bilan yozishmalar olib boradi va

Navoiy tomonidan bu xatlar to‘planib, to‘plam holiga keltirilgan. Bu nodir nusxa hozirda O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalari xazinasida saqlanmoqda.

Xo‘ja Ahror hazratlari 895 hijriy yil rajab oyining shanba kunida (1490-yilning may-iyun oylari) Samarqand qishloqlaridan bo‘lmish Kamongaronda (Urgut tumanida) bu olam bilan vidolashdilar. Ul hazratning tabarruk jasdlari Kamongarondan Xo‘ja Kafshir mahallasiga olib kelinib, dafn etildi. Bu qabristonga hazratning ko‘plab yaqinlari, mashhur ulamo va fozillar dafn etilganlar. Xo‘ja Ahror Valiyga atab daxma quriladi. Bu daxma taxminan XV asrning oxirlarida vujudga kelgan. Daxmada jami 14 qabr mavjud bo‘lib, ularning ba‘zilariga lavhatoshlari qo‘yilgan, ayrimlarida yo‘q. Birinchi qabr daxmaning old tomonida joylashgan. Unda hajmi jihatdan eng katta va baland lavxatosh qo‘yilgan. Lavhada bitilgan matnning mazmunidan qabr Xo‘ja Ubaydulloh Ahrorga mansub ekanligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, matn oxirida bitilgan forsiy marsiyaning dastlabki to‘rt misrasi bunga dalildir.

Shuningdek, daxmaga Xo‘ja Ahrorning yaqinlari, o‘g‘illari, nabira-evaralari ham qo‘yilgan. Mustaqillik yillaridan keyin Xo‘ja Ahror Valiy daxmasida keng ko‘lamli ta‘mirlash ishlari olib borildi va bugungi kunda yurtdoshlarimizning ziyoratgohlaridan biri sifatida qadrlanadi. Ushbu maqolani yozish davomida ko‘plab bilimlarga ega bo‘ldim va Xo‘ja Ahror Valiy misolida inson faqat bir taraflama rivojlanmay, balki ham ma‘naviy, ham dunyoviy sohadan xabardor bo‘lishi kerak ekan.

9 Shuxrat Qulmatov, Amiriddin Berdimurodov – „Samarqand yodgorliklari“ Samarqand – 2017.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abu Tohirxo‘ja. Samariya (Samarqand mozorlari va qadamjolari tarixi). – Toshkent: Kamalak, 1991.
2. Qulmatov, Sh., Berdimurodov, A. Samarqand yodgorliklari. – Samarqand, 2017.
3. Samarqand yer yuzining sayqali. – Toshkent, 2022.
4. Sattorova, I. Samarqand shahri va viloyatidagi muqaddas qadamjolar, ziyoratgohlar tarixi. – Samarqand, 2025.
5. Valixo‘jayev, B. Buyuk ma‘naviy murshid — Xo‘ja Ahror Valiy (Monografiya).
6. – Samarqand.

INTERNRT MANBAALAR

8. <https://econferenceseries.com>
9. <https://oyna.uz>